

DAVLAT BOSHQARUVIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIGA IJTIMOYIY FIKRNING TA'SIRI: MEXANIZMLAR VA SAMARADORLIK

Saxatov Sanjar Sunnatillayevich

O'zbekiston davlat pedagogika universiteti magistranti

sanjarsaxatov1990@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat boshqaruvi samaradorligini baholash jarayonining nazariy asoslari, ilmiy yo'nalishlari, bosqichlari hamda baholash indikatorlari ochib berilgan. Bugungi kunda zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida "xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik qarorlarning hayotiyliigi va samaradorligi bevosita jamiyatning ushbu qarorlarni qanchalik qo'llab-quvvatlashiga bog'liq. Ijtimoiy fikr – bu nafaqat jamiyatning munosabati, balki davlat boshqaruvini korrektirovka qilish imkonini beruvchi teskari aloqa mexanizmidir. Mazkur maqola davlat boshqaruvning institutsional-funksional jarayonlari samaradorligini baholash ilmiy asoslantirilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv tizimi, davlat boshqaruvi asoslari, samaradorlik ko'rsatkichlari, baholash reytingi, natijadorlik, davlat boshqaruvi organlari, boshqaruvchi kadrlar, davlat xizmati.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические основы, научные направления, этапы и показатели оценки процесса оценки эффективности государственного управления. Сегодня в современной системе государственного управления первостепенное значение имеет принцип «народ должен служить обществу, а не государственным органам». Жизнеспособность и эффективность стратегических решений, принимаемых государством, напрямую зависят от того, насколько общество поддерживает эти решения. Общественное мнение – это не только отношение общества, но и механизм обратной связи, позволяющий корректировать государственное управление. В статье научно обосновывается оценка эффективности институциональных и функциональных процессов государственного управления.

Ключевые слова: Система управления, основы государственного управления, показатели эффективности, оценка и рейтингование, результативность, органы государственного управления, управленческий персонал, государственная служба.

Abstract. This article reveals the theoretical foundations, scientific directions, stages and evaluation indicators of the process of assessing the effectiveness of public administration. Today, in the modern public administration system, the principle that "the people should serve the public, not the state bodies" is of paramount importance.

(12th international scientific and practical conference)

The viability and effectiveness of strategic decisions made by the state directly depend on the extent to which society supports these decisions. Public opinion is not only the attitude of society, but also a feedback mechanism that allows for correction of public administration. This article scientifically substantiates the assessment of the effectiveness of institutional and functional processes of public administration.

Keywords: *management system, fundamentals of public administration, performance indicators, evaluation and rating, effectiveness, public administration bodies, managerial personnel, civil service.*

Bugungi globallashuv sharoitida zamonaviy rahbar samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni ijrosini ta'minlovchi hodimlarni tanlay bilishi, o'z faoliyati sohasidagi muammoni yechishga tizimli ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashishi, tanqidiy tahlil orqali barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishi, boshqaruv samaradorligini oshirish, tug'ridan to'g'ri rahbar qabul qiladigina qarorlar va uning ijrosini ta'minlovchi jamoaga bog'liqligi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning "Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini sezishi kerak" degan fikrlaridan anglash mumkinki, zamonaviy rahbar kadrlar boshqaruv qarorlar samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini bilishi, har bir qabul qilayotgan qarorlarni real foyda berayotganligini aniq misollar bilan ko'rsata bera olishi, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan, boshqaruv qarorlari samaradorligini baholash mezonlarini to'g'ri belgilash tajribasi va malakasiga ega bo'lishi lozimligi bugungi kunning asosiy talablaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bugungi sharoitda, qo'yiladigan maqsad asosida boshqaruv samaradorligini oshirish va rahbar va xodim o'rtasidagi munosabatni boshqarishda qarorlar qabul qilish va boshqaruv qarorlarining ijrosini ta'minlash va bunda xodimning imkoniyatlarni to'g'ri baxolash zarur bo'ladi. Turli sohalarda tizimli tahlil asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslarini o'rgangan olimlardan: A.P.Afanasev, B.Ye.Bolshakov, V.A.Volkonskiy, R.G.Grinberg, G.B.Kleyner, O.L.Kuznesov, P.G.Kuznesov, V.N.Livshis, S.A.Panov, V.P.Pokusay, K.A.Stepanov, M.Alle, L.Valras, K.E.Izard, N.Kaldor, D.Kaneman, A.Marshall, V.Pareto, A.Tverskilar o'ziga xos tarzda yondashuvlarni amalga oshirganlar.

Shuningdek, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etishgan A.V.Karpovning takidlashicha, qaror qabul qilish jarayoni shaxsning ko'p qirrali faoliyati hisoblanib, u ko'proq ijtimoiy mavqe'i bilan belgilanadi. Ko'p holatlarda faoliyatda qabul qilingan strategik qarorlar va amalga oshirishning istiqbollari, rahbarning bilim va ko'nikmalari ish jarayoniga xos bo'lgan muhim psixologik kompetensiyalari orqali baholanadi.

Demak, qaror qabul qilishning samaradorligini baholashda rahbarning faoliyat jarayonida qabul qilayotgan strategik va ijtimoiy qarorlariga, tashkiliy va innovatsion qobiliyatlariga rahbarning individual shaxsiy sifatlariga e'tibor qaratish lozim.

Qaror qabul qilish jarayoni ko'proq ijtimoiy, siyosiy, huquqiy xarakterga ega bo'lganligi bois, uni tushuntirishning zamonaviy konsepsiyalari va ilg'or nazariyalari ijtimoiy psixologiya sohasiga tegishli ko'plab tadqiqotlarda ham uchraydi. Quyida zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda inson qaror qabul qilishining psixologik shart-sharoitlari, qaror qabul qilish samaradorligiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va o'ziga hosliklar masalasiga to'xtalib o'tishga urinib ko'ramiz.

Rossiyalik olim, ijtimoiy psixologiya sohasida yetakchi mutaxassis sanalgan T.Y.Bazarovning yozishicha, qaror qabul qilish jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sanalib, unda rahbar shaxsining barcha yutuq va kamchiliklari aniq namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, rahbar har bir imkoniyatlarni tanlash jarayoni uchun javobgar shaxsdir.

Boshqaruv jarayoni qarorlarini qabul qilish jarayonida rahbarning o'zini tutishi, noaniqlik sharoitlardagi say harakatlari, professional xususiyatlari, o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati, kasbiy motivatsiya darajalari kabilar qay darajada rivojlanganligi o'z aksini topadi.

Ushbu fikri bilan rahbar shaxsining qaror qabul qilishdagi o'rni qanchalik katta ekanligini takidlamoqchi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qaror qabul qilishda rahbar shaxsining individual, professional xususiyatlari shuningdek, o'zini tutishi, yuqori motivatsiyasi, o'z ishiga bo'lgan muhabbati, kasbiy tajribasi katta rol o'ynaydi.

Qabul qilgan qarorlar kelajakda toki muvaffaqiyatga yoki muvaffaqiyatsizlikka olib borishi bildirilgan fikrda keng yoritib berilgan. Shuningdek, qaror qabul qilishda qarorning ijrosi uchun ajratilgan vaqt birligini ham e'tiborga olish talab etiladi. Har qanday qaror tahlil qilinganda uning tarkibida aniq maqsad, manfaat, vaqt va makon jihatlari o'z aksini topgan bo'ladi.

Qarorlar tuzilishi va unda aks ettirilgan ma'lumotlar aniq tartibda joylashtirilgan bo'lishi lozim. Misol tariqasida A.Xolovning o'zining "Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy usullari va rahbar mas'uliyati" nomli monografisida ijtimoiy-huquqiy nuqtai nazardan: Sud qarorlarining tuzilishini tahlil qilsak, ularning kirish qismida sud aktining nomi, qarori, qaysi organ tomonidan qabul qilinganligi, sud hay'ati tarkibi, ishning raqami, sana, manzil, ishning tarkibiga kiruvchi shaxslarning ism-sharifi kabi ma'lumotlar kiradi.

Asosiy qismning tasnif etuvchi qismida ish haqida qisqa ma'lumot, ariza beruvchilarning maqsadi, ko'rib chiqilgan ishning natijasi kabi ma'lumotlar bayon etiladi. Asosiy qismning ikkinchi qismida qaror qabul qilishga asos bo'lgan motivlar, sud qabul qilgan qarorning asoslari kabi ma'lumotlar keltiriladi, deb ifodalanadi.

Boshqaruv qarorlarining muhim ijtmoy-psixologik xususiyati esa shundaki, ular favqulodda holat yuzaga kelganda, tizimning haqiqiy holati va kutilayotgan yangi holat oʻrtasidagi farqlarni baholashga keng imkon beradi.

Shuni taʼkidlashimiz mumkinki, qaror qabul qilish jarayoni oddiygina jarayon boʻlibgina qolmay, biron bir maqsadni amalga oshirish, taqdirni belgilash, natijani kutish va yangi imkoniyatlarning yaratilishiga va ularni amalga oshirilishiga katta yordam beradigan jarayondir. Aynan bugungi kunda davrda toʻgʻri qarorlar qabul qilish va uni taʼminlash muvafaqiyatga erishishning eng asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bazarov T.Y. “Psixologiya upravleniya personalom”. Uchebnk i praktikum dlya akademiskovo bakalavriata. Yurayt. 2016.
2. Karpov A.V. “Psixologiya prinyatiya resheniya”. Monografiya. Yaroslavl gos. 2003.
3. Sh.M.Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak”. – Toshkent.: Oʻzbekiston. 2017-yil.
4. Xolov A.X. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishning zamonaviy usullari va rahbar maʼsuliyati. Monografiya. “Tafakkur-qanoti” nashriyoti. 2017.